

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



LINGUODIDACTIC AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO LANGUAGE TEACHING TO MILITARY CADETS

Nafisa Yusupova

Senior lecturer

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Linguodidactics, methodology, General theory, language education, law and style, linguistic minimum

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: the article is devoted to the study of the regularities of language acquisition and the organization of linguistic and language teaching methods of modern methodological science. Scientists with concepts of linguistics and methodology expressed a different attitude. The article substantiates the need for effective use of the laws and methods of linguistics and methods of teaching the Persian language to students who entered the system of language education as an independent science.

HARBIY BILIM YURTI KURSANTLARIغا TIL O'QITISHDA LINGVODIDAKTIK VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Nafisa Yusupova

katta o'qituvchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Lingvoodidaktika, metodika, umumiyl nazariyasi, til ta'limi, qonuniyat va uslub, lisoniy minimum.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy metodika fanining lingvoodidaktika bilan til o'qitish metodikasidan tashkil topishi hamda til o'zlashtirish qonuniyatlarini tadqiq yetishiga bag'ishlanadi. Lingvoodidaktika vametodika tushunchalariga bo'lgan olimlar har xil munosabat bildirib o'tilgan. Maqolada til ta'limi tizimiga mustaqil fanlar bo'lib kirgan va kursantlarga fors tilini o'rgatishda lingvoodidaktika va metodikaning qonuniyat va uslublaridan samarali foydalanish zaruriyati ochib berilgan.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ЯЗЫКА КАЖДАНТОВ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Нафиса Юсупова

Старший преподаватель

*Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Лингводидактика, методология, общая теория, языковое образование, право и стиль, лингвистический минимум.

Аннотация: Статья посвящена исследованию закономерностей овладения языком и организации лингвистических и языковых методов обучения современной методологической науки. Ученые с концепциями лингвистики и методологии выразили иное отношение. В статье обосновывается необходимость эффективного использования законов и методов лингвистики и методики преподавания персидского языка курсантам, вошедшем в систему языкового образования как самостоятельная наука.

KIRISH

Lingvovidaktika va metodika masalasi katta masala. Bu ilmiy masalaga olimlar o'zlarining tanqidiy qarashlari bilan ko'plab izlanishlar olib bormoqdalar. M. Djusupovning konsepsiyasiga asoslangan holda mazkur masalaga ilmiy yondashuv maqsad qilib olindi [1,26]. Zamonaviy metodika fani lingvovidaktika bilan til o'qitish metodikasi asosida tashkil topdi va til o'zlashtirish qonuniyatlarini tadqiq etib kelmoqda. Shunday bo'lsada, lingvovidaktika va metodika tushunchalariga olimlar quyidagicha munosabat bildiradilar:

- 1) ular yakka ilmiy sohani anglatuvchi sinonim atamalardir;
- 2) til o'qitish tizimida ikki hil tushunchada, ya'ni: a) tilni ta'lim berish maqsadida ta'riflovchi va b) faqat ta'lim jarayonida foydalanishni anglatuvchi atamalar tushuniladi;
- 3) lingvovidaktika - tilni ta'lim maqsadida ta'riflovchi va bevosita ta'lim jarayonini o'zida mujassamlovchi ilmdir;
- 4) metodika til o'qitish metodikasini hamda tilni ta'lim maqsidida ta'riflavchi (ya'ni lingvovidaktikani) mujassam etuvchi ilmdir.

ASOSIY QISM

Lingvovidaktika lotincha «lingua» “til” va yunoncha «didaktikos» “o'rgatish” so'zlaridan olingan bo'lib, til o'qitishning umumiy nazariyasini yaratish bilan shug'illanuvchi fan hisoblanadi. Mazkur atamani ilmga dastlab rus tilshunosi N.M. Shanskiy olib kirgan bo'lib, bu fanning tilni ta'lim berish muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullanishga mo'ljallanganligini ta'kidlaydi. Dunyo tillar orasidagi o'xshashlik va tafavvutlarni aniqlash, o'rganilayotgan tilning mazmuniy va

tarkibiy jihatlarini tahlil etish, o'qitish jarayoniga kerakli lisoniy minimumlar tuzish kabi muommalarini yechish lingvovidaktikaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shimcha ravishda yana bir qancha olimlar mazkur ikki atamaning ma'nosi va uni qo'llanish o'rni yuzasidan turli xil fikrlar bildirilgan.

Lingvovidaktika atamasi umumiy ma'noda tilni o'qitish maqsadlarini nazarda tutgan holda tahlil yetishni hamda til o'qitishning nazariy va metodik muammolarini o'rganish tushunchasini anglatadi [1, 27]. Lingvovidaktika haqidagi bunday qarashlar xususiy didaktikani (til ta'limi didaktikasini) anglatuvchi "metodika" atamasiga ham to'liq tegishlidir. Mazkur fikr asosida bir necha fanlar tutashuvida yuzaga kelgan mustaqil ilm sohasi - lingvovidaktikaga tenglashtirilishi to'g'ri emas, chunki mazkur tushunchada til ta'limining nazariy va amaliy jihatlari aniq farqlab berilmaganligi ko'rinish turibdi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish fanlar taraqqiyotining hozirgi bosqichi ilmiy va ilmiy-o'quv tadqiqotlarining lingvovidaktika va tilga o'qitish metodikasini jamlagan holda kengaytirgan tarzda tushunish nuqtai nazaridan olib borilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda lingvovidaktika va metodika tushunchalariga sinonim bo'lgan lingvometodika atamasi ham ishlatiladi. Mashhur tilshunos M.R.Lvov o'zining "Словарь – справочник по методике русского языка" nomli kitobida bu atamani "Lingvometodika" deb hisoblaydi va bu "ona tili yoki xorijiy tilni o'qitish metodikasidir" deydi. Bu atama ko'pincha lingvovidaktik maqolalarda va rus tilini milliy maktablarda o'qitish metodikasida qo'llaniladi" [2,96]. Aytib o'tish kerakki, mazkur atamani xorijiy tillarni barcha milliy ta'lim muasssasalarida o'qitish metodikasiga nisbatan ham ishlatish mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki, biz ko'rib o'tgan atamalarning bir xil ma'nodagi tushuncha deb hisoblovchi olimlar mavjud bo'lsa-da, lingvovidaktikaning metodikaga sinonim bo'ladiganligi to'g'risidagi fikrlarga qo'shilish to'g'ri bo'lmaydi.

Lingvovidaktika yuzasidan boshqa olimlar tomonidan bildirilgan nazariy-ilmiy fikrlarga ham to'xtalib o'tamiz. Ba'zi tilshunos va metodistlar mazkur atamaning kelajakda qo'llanilishiga gumon qilgan edilar. Boshqa olimlar esa lingvovidaktika atamasi bildiradigan tushunchani inkor etmagan holda til ta'limi deb hisoblashadi.

Lingvovidaktika atamasi umumiy ma'noda tilni o'qitish maqsadlarini nazarda tutgan holda tahlil etishni hamda tilni o'qitishning nazariy va metodik muammolarini o'rganish tushunchalarini bildiradi [1, 27]. Lingvovidaktika haqida bunday nuqtai nazar xususiy didaktikani (til ta'limi didaktikasini) anglatuvchi "metodika" atamasiga ham to'liq tegishlidir. Mazkur nuqtai nazarning bir necha fanlar tutashuvida yuzaga kelgan mustaqil ilm sohasi - lingvovidaktikaga oid yuritilishi to'g'ri emas, chunki mazkur tushinishda til ta'limining nazariy va amaliy jihatlari aniq farqlanmaganligi bilinib turibdi. Ammo til o'qitish bo'yicha fanlar taraqqiyotining hozirgi

bosqichida ilmiy va ilmiy-o'quv tadqiqotlari lingvovidaktika hamda tilga o'qitish metodikasini jamlagan holda kengaytirgan ma'noda tushunish nuqtai nazaridan olib borilmoqda.

Lingvovidaktika va metodikani alohida fanlar qatoriga kiritishni I.I. Xaleeva ham to‘g‘ri deb hisoblaydi. Olimaning fikricha, lingvovidaktika - bu tilni egallashning umumiy nazariyasini (yoki til o‘qitishning umumiy nazariyasini) tadqiq yetuvchi fandir. Shunday qilib, lingvovidaktika bilan metodikani yakka fansifatida sinonim atamalar deb hisoblash noto‘g‘ridir, chunki lingvovidaktika va metodikaning tadqiq etish ob‘ektlari va predmetlari o‘xshash emasdir. Umumlashtirib aytganda, lingvovidaktika til o‘qitishning nazariy asoslarini, ya’ni til nazariyasini ta’lim maqsadlariga ko‘ra ta’riflasa, metodika lisoniy va ekstralisoniy xodisalarning o‘ziga hos bo‘lgan jahatlarni lingvovidaktik tadqiq qilish natijalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish bilan shug‘illanadi. Bu esa lingvovidaktika va til o‘qitish metodikasiijtimoiy ta’lim sohalardan biri sanaladi. Til ta’limiga nisbatan tilshunoslik, didaktika va pedagogika fanlaridan ajralib chiqqan mustakil ikki fanning mavjudligidan darak beradi. Bu holatni ilm - fanning zamonaviy taraqqiyotiga ham to‘liq yondashuv deb atashimiz mumkin.

Ilm - fanning hozirgi kundagi vaziyatida ilmlar tutashuvida hosil bo‘lgan yangi ilmiy yo‘nalishlarning mustaqil ilm sohasiga aylanishi, yakka fan tarkibidagi yangi ilmiy yo‘nalishning yoki ilmiy sohaning boshqa ilmlar (qarindosh yoki qarindosh emas) bilan uzviy aloqadorligi kabi jarayonlar juda ko‘p kuzatilmoqda. Ayniqsa XX asr yangi bilimlarning tabiiy holatda ko‘plab shakllangan davri bo‘ldi. Masalan, til sathlari bilan stilistikaning o‘zaro munosabati natijasida sathlar stilistikasi yoki manbalar stilistikasi degan umumiy nom ostidagi bir qancha lisoniy - ilmiy yo‘nalishlar yuzaga keldi. [1, 32].

Hozirgi paytda u yoki bu mustaqil fanning qaysi va nechta fanlar tutashuvida paydo bo‘lganligini aniq izohlash qiyin masalaga aylandi. Masalan, xorijiy tilga o‘qitish metodikasi fanini faqat tilshunoslik va didaktikaning, pedagogika va psixologiyaning tutashuvida vujudga kelganligi haqida aniq ayrib berish mushkil ishdir, chunki bu fanning hozirgi holatida uning talablarini o‘rta maktab, kollej va litseylarda hamda oliv ta’lim muassasalarida to‘liq qo‘llash uchun u yoki bu xudduda, (mazkur tilning ushbu davlatda ishlatish darjasini bo‘yicha), ta’lim maqsadlari xosliklarini hisobga olgan holda (masalan, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish) amalga oshirish lozimdir. Shunga bois, fanlar tutashuvida yangi ilmlarning paydo bo‘lish jarayoni ularning xususiy ob‘ektlari, predmetlari va tadqiq etish materiallari hamda kategoriya va tamoyillarining mavjudligi ushbu ilmiy yo‘nalishni bildiruvchi (belgilovchi) atamalarning orasida sinonimlik munosabatlarning yo‘q ekanligini ko‘rsatadi. Huddi shuning uchun til ta’limiga oid tizimlarni anglatuvchi lingvovidaktika va metodika atamalari va ularni bildiruvchi tegishli tushunchalar ma’nodosh emas degan xulosa kelib chiqadi.

Yana shuni o'tish lozimki, lingvovididaktika til o'qitishning umumiy qoidalarini hosil qiladi, ya'ni til egallashning umumiy universal nazariyasini (yoki tilga o'qitishning umumiy universal nazariyasini) ta'lim oluvchilar ona tilining fonetik, leksik, so'z yasalishi va tarkibi, morfologik, sintaktik, stilistik va boshqa lisoniy xususiyatlarini hamda o'rganilayotgan tilning lingvovididaktik, lingvokontrastiv va sotsiolingvistik alohidaliklarini, uning qo'llanish va o'rganish sharoitlarini qo'shib nazarda tutgan holda til egallashning umumiy universal nazariyasini yaratadi. Metodika esa tilning lingvovididaktik ta'rifini ta'lim muassasasining o'quv jarayoniga to'g'ridan to'g'ri tadbiq etishning, ya'ni til o'qitish jarayonining o'zginasidir. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, til o'qitish metodikasi o'quv materiallari, o'quvchilar ona tili bilan o'rganilayotgan tilning genetik yaqinligi yoki uzoqligi, psixologik, lingvokulturologik, lingvota'lim, mentalingvistik va tarixiy o'ziga xosliklarini ta'lim oluvchilarning milliy xususiyatlariga bog'lagan holda tilni lingvometodik ta'riflashga tuzatishlar va aniqliklar kiritishi mumkin [1, 137]. Shuning bilan, lingvovididaktika va til o'qitish metodikasining mustaqil fanlar ekanligi to'g'risida yangi nazariy qarashlar yuzaga kelaveradi. Hozirgi kunda lingvometodika va til o'qitish metodikasi til ta'limi tizimidagi ilmlar qatoriga mustaqil fanlar bo'lib kirishini tan olish lozim.

A.N. Shchukin bu holatga shunday izoh beradi: "Agarda lingvovididaktika til o'qitishning metodologik asoslarini yaratuvchi nazariya bo'lsa, metodika aniq bir tilni uni o'rgatishning aniq sharoitlarda amalga oshiradigan o'quv jarayonini tasniflaydi (xususiy metodika), (tillar guruhini) o'qitishning qonuniyatları va usullarini qo'llashni aniq bir sharoitga munosabatini ko'rsatib beradi (umumiy metodika), yoki tilning biror bir tomoni hamda nutq faoliyati turini o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi (maxsus metodika) [4, 21-22]. Maxsus ilmiy va ilmiy - o'quv tadqiqotlarida hamda o'rta va oliy ta'lim muassalarining til o'qitish jarayonida lingvovididaktika va metodikaning yuzaga kelgan muammolari alohida (mustaqil) yoki jamlangan holda o'rganilishi mumkin. Bu yesa biror bir lisoniy mavzu bo'yicha aniq ish vaziyatida tadqiqotchi, o'rta yoki oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining oldiga qo'ygan vazifa va maqsadlariga bog'liq. Til ta'limi tizimida lingvovididaktika metodikaning muammolarini o'z oldiga olishi yoki umumlashtirgan holda ko'rib chiqishi mumkin, chunki bu fanlar o'zaro uzviy bog'langan va mujassamlangandir. Til ta'limi tizimiga mustaqil fanlar bo'lib kirgan lingvovididaktika va til o'qitish metodikasining tobora rivojlanishi jarayonida ularning bir biridan farqlanishi (o'zaro yaqin aloqada bo'lganlariga qaramasdan) chuqurlashadi va kengayadi, bu esa fanlarning tarixda mustaqillashishining tabiiy holatidir. Xorijiy tillarni o'rgatishda lingvovididaktika va metodikaning qonuniyat va uslublaridan samarali foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishning eng qisqa yo'lidir.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarga xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, Lingvovididaktika tilning nozik qirralarini o'rganuvchi, uni tadqiq etuvchi fandir. Xorjiy tillarni oson va tez o'rgatishda

lingvoodidaktikaning roli kattadir. Ta’lim jarayonidagi maqsadning aniqligi hamda lingvoodidaktik metodlar orqali darslar qiziqarli o’tishi xorijiy tillarni o’qitishda o‘z samarasini ko‘rsatadi. Lingvoodidaktika-til o‘rganishda va o‘qish jarayonidagi muhim umumiylazariyadir. U o‘rganilayotgan materialning didaktik maqsadlari, vazifalari va tabiatiga, monolingvism (monolingvism) yoki ikki tillilik (ikki tillilik) sharoitlariga, o‘quvchilarning o‘rganish va aqliy va nutqiy rivojlanish bosqichiga qarab til o‘rganishning umumiylazolarini, muayyan til o‘qitish mazmuni, metod va vositalarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida jamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Джусупов М. Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. //Русский язык за рубежом, 2009, № 2. С.27;
2. Львов М.Р. Словарь-справочник по методике русского языка. -М., 1988.С.96
3. Миролюбов А.А. Методика или лингводидактика иностранных языков // Иностранные языки в школе. М., 2005.№ 2.с.35
4. Щукин А.Н. Методика как учебная, научная и практическая дисциплина. //Методика преподавания русского языка как иностранного. Ч. I / Под ред. Э.Г.Азимова. - М., 2004. С.-21-22